

SHARQIY BUXORODA SOVETLARGA QARSHI JANGLAR

Juliboyev Alimardon Abdulmajid o'g'li

QDPI Tarix fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13340472>

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz Buxoroning sovet bosqinchilariga qarshi kurashlari haqida ma'lumotlar beramiz. Sharqiy Buxoro qismida kurash olib brogan Ibrohimbek qo'rboshi, Salim posho, Anvar posho, Fuzayl Maxdum kabi istiqloлчаilar harakati yangi tahlillar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ibrohimbek qo'rboshi, istiqloлчаilik harakati, Anvar posho, qizil armiya, Sharqiy Buxoro, qo'rboshilar.

BATTLES AGAINST THE SOVIETS IN EAST BUKHARA

Abstract. In this article, we provide information about Bukhara's struggle against the Soviet invaders. The movement of independence fighters such as Ibrohimbek Korboshi, Salim Pasha, Anwar Pasha, Fuzayl Makhdum, who fought in the eastern part of Bukhara, is highlighted based on new analyses.

Key Words: Ibrahimbek Korboshi, independence movement, Anwar Pasha, Red Army, Eastern Bukhara, Korboshi.

БИТВЫ ПРОТИВ СОВЕТОВ В ВОСТОЧНОЙ БУХАРЕ

Аннотация. В данной статье мы приводим информацию о борьбе Бухары с советскими оккупантами. На основе нового анализа выделено движение борцов за независимость, таких как Иброхимбек Корбоши, Салим-паша, Анвар-паша, Фузайл Махдум, воевавших в восточной части Бухары.

Ключевые слова: Ибрагимбек Корбоши, движение за независимость, Анвар-паша, Красная Армия, Восточная Бухара, Корбоши.

1922-yil kuz faslida Sharqiy Buxoroda qizg'in janglar ketayotgan bo'lib bu yerdagi istiqloлчаilar Ibrohimbek boshchiligida kurashni davom ettirayotgan edi. Sentabr oyining o'rtalarida ularning safiga Avg'onistonan Salim Poshxo Xo'ji Somiy afandi kelib qo'shildi. Oktabr oyining o'rtalarida Boljuvonda 37 chaqirim Shimoliy sharqda bo'lgan Salim pulida qo'rboshilarning qurultoyinio o'tkazdi. Ibroximbek bu gal ham navbatdagi turk zobitiga o'zining barcha huquqlarini osonlikcha berib qo'yishni hohlamadi.

Qolaversa Salim Poshoning nufuzi va obro'si sharqiy Buxoro istiqloлчаilari o'rtasida Anvar Poshonikidek yuqori emas edi. Fuzayl Maxdumning katta say-harakatlari natijasida Qorateginda bo'lgan qo'rboshilarning navbatdagi qurultoyida Salim Poshxo sharqiy Buxoro istiqloлчаilarning oily bosh qo'mondoni deb tan olindi. Bu qurultoyda Samarqand va Farg'onadan kelgan istiqloлчаilik harakatining vakillari ham ishtirok etdi. Salim Poshxo qo'l ostidagi Qo'rboshilarni Ko'lob rayonida to'plab, shuningdek, har birida 500 kishidan iborat bo'lgan Said polvon va Mullaniyoz qo'rboshi dastalari bilan birgalikda 1923-yil 16-fevralda Vaxsh daryosidan kechib, uning o'ng qirg'og'idagi Qo'rg'ontepa tumaniga bordi va Xisor vodiysi tomon yo'l oldi. Salim poshsho Shuryanboshi degan joyda vaqtinchalik o'z qarorgohini o'rnatdi va nihoyat ibroximbek, qo'rboshidan Salim podshoning oliy bosh qo'mondan ekanligi tan olingan habar unga yetib keldi. Bu xushxabarni Salim poshsho

uzoq paytdan buyon intiqlik bilan kutar edi. Salim Poshsho qo‘li ostida endi 10 000 kishidan ortiq istiqloolchi to‘plandi. 1923-yil fevral oyida Salim Posho Shuryanboshida qurultoy chaqirilib unda qo‘rboshilar bilan uchrashdi va har bir dastaning harakat rejasini belgilab berdi.

Qurultoyda ishtirok etgan Ibroximbek bilan birgalikda Salim Posho bir vaqtning o‘zida ikki yo‘nalish bo‘yicha hujum harakatlari qilish rejasini ishlab chiqishdi. Salim Posho 6000 jangchidan iborat asosiy kuchlarni olib G‘uzor, Qarshi, va G‘arbiy Buxoroga qarab yo‘l oldi. U Samarqand va Farg‘ona istiqloolchilari bilan keyinroq qo‘shilishini ham mo‘ljalladi. Ibroximbek qo‘rboshi bo‘lsa 3000 yigit bilan Dushanbe, Xisor, Qobodiyon tomonga yurib, Sharqiy Buxoroda sovet hokimyatini batamom tugatishi va Salim Posho qo‘shinining orqa tomonini muhofaza etish shart edi. Bu rejani amalga oshira borib, ular 1923-yilning baxorida Qarshi-Karki, Termiz-Boysun liniyasiga chiqishdi. Salim Poshoning 1300 suvoriysi Kalif tomonga yo‘l olib Turkman boylari bilan qo‘shilishga harakat qildi.

Salim Posho qo‘rboshilardan o‘z dastalarida qattiq tartib intizom o‘rnatishini talab etdi. 1923-yil bahorida Buxoro Respublikasi hududida quyidagi uchta yirik lashkarboshi Mulla Abdulqahhor qo‘rboshi G‘arbiy Buxoroda Ibroximbek qo‘rboshi Sharqiy Buxoroda Salim Posho O‘rta Buxoroda qizil armiyaga qarshi ommaviy ravishda hujum boshladilar. Turkiston fronti qo‘mondoni A.Kork o‘z navbatida katta miqdordagi kuchlarni Buxoro Respublikasi hududiga, xususan, Sharqiy Buxoroga tashlash haqida buyruq berdi.

Buxoroga 3-otliqlar brigadasi, 11-otliqlar diviziyasi va 6-alohida otliqlar brigadasi zudlik bilan yetib keldi. Qariyb 15000 kishidan iborat bo‘lgan bu bosqinchi kuchlar P.Pavlov boshchiligidagi 13-o‘qchi korpusga birlashtirildi. Sharqiy Buxorodagi qizil askarlar oldiga ikki asosiy vazifa qo‘yildi va shundan kelib chiqqan holda bosqinchilar qo‘shini quyidagi ikki guruhga ajratildi. Sovet qo‘mondonligi o‘z jangovor operatsiyalarida aviatsiyasidan ustalik bilan foydalanar edi.

O’sha davrdagi harbiy harakatlarda samoliyotlarning xizmati juda katta bo‘lgan istiqloolchilar va mahalliy aholi ruhiyatiga bu “Po‘lat qo‘zg‘olonlar” o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmadi. Sovet qo‘mondonligi o‘z kuchlarini yuqoridagi tartibda joylashtirgach istiqloolchilik harakatiga qarshi umumiy xarbiy xarakatlarni Sharqiy Buxoroda 1923-yil mart oyining boshlarida, G‘arbiy Buxoroda mart oyining o‘rtalarida boshlab yubordi.

Qizil armiya qo‘shinlari butun Buxoro Respublikasi hududida istiqloolchilarga qarshi boshlangan harbiy xarakatlarini aprel may oylarida yanada faollashtirib yubordi. Natijada vatanparvarlar askarlari bir necha janglarda mag‘lubiyatga uchradi. Salim Posho dastalari Sharqiy Buxoro tomonga qaytadan chekindilar. Salim Posho Kolif va Denov orqali Xisor vodiysiga keldi. Ibroximbek qo‘rboshi dastlab Sharqiy Buxoroda muvaffaqiyatli ravishda jangovor harakatlar olib bordi.

U Surxon daryosi atrofidagi Yuqori Kakaydida bir qator janglar o‘tkazdi. Ibroximbek bu janglarda ustunlikka erisha olmagach, yana orqaga qaytib, Dushanbe atrofidagi Loqayda o‘z kuchlarini mustahkamladi va yangi janglarga tayyorlandi. Ibroximbek atrofida Raxmat Miraxur, Barot Eshik og‘asi, Mulla Niyoz, Mulla Eson (Iso), Shirin To‘qsaba, Axmadbek, Abduqodir Qarluq, Abduqayum parvonachi kabi nufuzli qo‘rboshilar birlashdi.

Qizil armiyaning Sharqiy Buxoroga bosqini natijasida may oyida bu yerda ko'plab qo'rboshilar dastalari tuzildi va ular bosqinchilarga qarshi janglarda qatnashdi. Sovet ma'murlarining e'tirof qilishlaricha, 1923-yil may oyida istiqololchilar safiga mahalliy millatga mansub ko'plab ma'sul xodimlar, militseonerlar kelib qo'shilgan. Ibrohimbek qo'rboshi Xisor vohasi (Dushanbe atrofi)da o'z kuchlarini jipslashtirgach, qizillarga qarshi hujumga o'tdi. U may oyining ohirida 2-Turkiston otliqlar polkining Obikiyik qishlog'ida qurshab olishga muvaffaq bo'ldi. Ibrximbek bilan Salim Posho o'rtasidagi ihtilof qizil askarlarning bu yerda muqarrar tor-mol qilinishdan saqlab qoldi.

Salim Poshoning Qarshidagi mag'lubiyatidan so'ng, Ibroximbek yana unga bo'ysunmay qo'ygan edi. Ibroximbekning hujumi haqidagi habarni eshitgach, Salim Posho o'zining 2500 kishilik qo'shini bilan uning qarorgohiga keldi. Qizil askarlar bilan Ibroximbek qo'shini o'rtasidagi qonli to'qnashuvni kuzatgach, Salim Posho o'z safdoshlariga yordam berish o'rniga, unga do'q-po'psa qilishdan nariga o'tmadi. Natijada qulay imkoniyatdan foydalangan qizil askarlarning boshqa 1-Turkiston otliqlar polki Ibroximbekka to'satdan orqa tomondan kuchli zarba berdi. Jang qizigan paytda kelib, Ibroximbekni chalg'itgan Salim Posho o'z qo'shini bilan bu yerni tark etdi. Ushbu jangda Ibroximbek mag'lubiyatga uchrab, 500 askarni yo'qotdi va Vaxsh daryosining so'l oqimiga o'tib ketdi. Ibroximbek hammasi bo'lib, bu janglarda 1300 kishidan ajralgan, iyun oyining o'rtalariga kelib esa Loqaydagi istiqololchilar soni 15000 kishidan 350 kishiga tushib qolgan edi.

1923-yil yoz-ko'z fasllarida muholifatchilar Sharqiy Buxoro uchun bo'lgan janglarda mag'lubiyatga uchrashdi. Bir qator muvaffaqiyatsiz janglardan so'ng Salim Posho 1923-yil 15-iyulda Panj daryosidagi Xirmonjoy kechuvidan Afg'onistonga o'tib ketdi. Sovet hukumatining qat'iy talabi bilan Afg'oniston ma'muriyati Salim Poshoning o'z davlati hududidan chiqarib, uni Eronga jo'natdi. 1923-yil iyul oyida qizil askarlar Qorategin bekligi ustiga yurish qilishdi. Bu yerda Qorategin bekligi hokimi Fuzayl Maxdum rahbarligidagi istiqololchilar uch yildan beri qizil askarlarning barcha hujumlarini qaytarib, Qorateginni ular bosib olishga yo'l qo'ymayotgan edi. Biroq bu gal qizil askarlarning kuchlari vatanparvarlarnikiga qaraganda bir necha marta ortiq edi. Natijada 29-iyulda Qorategin bekligining markazi Farm shahri qizil askarlar tomonidan bosib olindi. Istiqololchilar Farm shahrini mudofa etib qizil askarlar qilgan tinimsiz hujumlarni 12 soat davomida qaytarishga muvaffaq bo'lsalarda, ohirda Farmni tashlab chiqishdi.

Darvoz bekligida bosqinchi qizil armiya bilan istiqololchilar o'rtasida janglar qizib ketdi. Darvoz begi Telvarsho bilan Fuzayl Mahdum qo'shinlari Qal'ayi Humbda to'plandi.

Qal'ayi Humb beklilikning markazi bo'lib, u shunday Afg'oniston chegarasida joylashgan edi. Qorategin va Darvoz bekliliklarining birlashgan qo'shiniga qarshi qizil askarlar katta miqdordagi xarbiy kuchlar va samolyotlarni tashlashdi. Pirovardida bu jangda ham istiqololchilar mag'lubiyatga uchradi. U birodari Darvoz begi Telvarsho va oz sonli askarlari bilan birgalikda Afg'oniston chegarasidan o'tdi. Oradan ikki yil o'tgach Telvarsho yana sobiq Darvoz bekligi hududida o'zining 300 kishilik dastasi bilan paydo bo'lib, qizil askarlarga qarshi janglar olib bordi. Fuzayl Maxdum ham tez orada Sharqiy Buxoroga qaytib, yana o'zoq payt davomida bosqinchilarga qarshi hayot - mamot kurashida qatnashdi.

Vatanparvar kuchlar Qorategin va Darvozdagi mag'lubiyatlariga qaramay, Sharqiy Buxoroga qizil armiya qismlariga qarshi shiddatli janglar olib borishdi. Sharqiy Buxorodagi butun qo'rboshi dastalari 1923-yilning yozida Ibroximbek tomonidan qayta kuch-g'ayrat sarf qilib birlashtirildi. Istiqlolchilarning soni 5000-7000 kishiga yetdi. Ibroximbek yana Sharqiy Buxoro qo'rboshilarining tan olingan yagona yo'lboshchisi bo'lib qoldi. Surxon vodiysida bo'lsa Xurrambek qo'rboshi o'z tasir doirasini kengaytirib, bu yerdagi istiqloolchi kuchlarga boshchilik qilardi. 1924-yil yanvarda Ibroximbek qo'rboshi Vaxsh daryosining o'ng qirg'og'ida o'zining asosiy kuchlari bilan birlashdi. U Xisor shuningdek Vaxsh daryosi sohillarida askarlarga qarshi bir qator kuchli zarbalar berishga muvaffaq bo'ldi bu paytga kelib, Sharqiy Buxoroda Xurrambek va Baymod, Mulla Niyoz Raxmon, Dodxoh, Boymurod Asadullabek, Mulla Eson, Usmonqul, Mirzo Ali, Barot To'qsabo, Alla Nazar Tolvon, Eshon Gish, Telvorsho Temir Toqsabo, Doston To'qsabo, Tog'ay Sari kabi qo'rboshilar dastalari bo'lib, ularning har biri ixtiyorida 400-350 jangchisi bor edi.

Sharqiy Buxoroda o'rnatilayotgan sovet rejimi Ibroximbek qo'rboshiga qarshi kurshda ham xuddi G'arbiy Buxoroda bo'lgani singari islom dini ulamolaridan keng foydalandi.

Sharqiy Buxorodagi butun aholi o'rtasida katta nufuzga ega bo'lgan laqaylarning eng taniqli va mashxur mullasi Eshon xo'ja Domulla Donohon Laqay revkomining qat'iy talabi bilan 50 kishilik delegatsiyaga bosh bo'lib 1924-yil 4-fevralda Ibroximbek huzuriga jo'nab ketdi.

Delegatsiya Ibroximbekni sovet hukumati vakillariga taslim bo'lishga ko'ndirishi kerak edi. Sharqiy Buxoro istiqloolchilarning yo'lboshchisi Ibroximbek qo'rboshi 11-fevralda Ingichka qishlog'ida bo'lgan uchrashuvga delegatsiya a'zolariga qat'iy rad javobini berdi.

Bu holdan qattiq g'azablangan qizil armiya qismlari Ibroximbek qo'shiniga qarshi hujumga o'tdi. Ibroximbek qo'rboshi bu mag'lubiyatga qaramasdan, 1924 yil mart-aprel oylarida Xisor vodiysi va Vaxsh daryosi atroflarida o'z harakatlarini faollashtirdi. Sharqiy Buxoroda G'arbiy Buxorodan farqli o'laroq, qizil armiya qismlari 1924-yilning ikkinchi yarmida sezilarli xarbiy yutuqlarga erisha olmadi. Chunki birgina Ko'lob viloyatining Xavoling va Baljuvon tumanlarida xarakat qilgan Mirzo Dodxoh va Mulla Olim Mashinachi, Shorobod va Dashtijum tumanlaridagi Pachchaxon Egamberdi, Alla Nazar va Jonxon, Dang'ara va Qizil Mozor tumanlaridagi Ortiq, Tog'ay Sari va Barot kabi qo'rboshilar qo'l ostida bir necha ming istiqloolchi bo'lgan. Qo'rg'ontepa viloyati va Xisor vodiysida ham ularning katta kuchlari joylashgan edi. 1924-yil iyunda Akbar To'qsabo boshchiligidagi 300 kishi Ko'lob shaxriga hujum qilib shaxarni qizil askarlardan ozod qiladilar Ibroximbek qo'rboshi esa iyun-avgust oylarida Xisor vodiysida bir qator mavaffaqiyatli xarbiy xarakatlarni amalga oshirdi. 1924-yil 6-sentabrda Ibroximbek Orolto'qay atrofida Sharqiy Buxoro qo'rboshilarning navbatdagi qurultoyini o'tkazdi.

Mazkur anjumanda Said Olimxonning vakili ham qatnashdi. Unda qo'rboshilar kelgusi jang rejalarini muhokama qildilar. Qurultoy o'tayotganda 63-otliq polki jangchilari to'satdan hujum qilib ularga tashlandilar. Ibroximbek o'z safdoshlari bilan jang qilgan holda chekindi. 1924-yil yozi va ko'zida bo'lgan janglarda qizil askarlar tomonidan Sharqiy Buxoroda 50 qo'rboshi va 2500 yigit o'ldirildi, shundan 30 qo'rboshi Ibroximbek mansub bo'lgan o'zbeklarning laqay urug'idan edi. Ma'lumki 1924-yil kuzida Turkiston mintaqasida

milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilib, umumiy Turkiston negizida O'zbekiston va Turkmaniston SSR. Bir-biriga qarshi kurashayotgan har ikki tomon yuzaga kelgan yangicha siyosiy vaziyatga o'z kuchlarini qaytadan tartibga keltirdi. Istiqlolchilarga qarshi kurashda butun kuch va vositalarni markazlashtirish va birlashtirishga qaratilgan yo'l endilikda partiya va sovet hukumati tomonidan og'ishmay amalga oshirildi. Sovet totalitar rejimi tomonidan ko'rilgan ushbu chora-tadbirlarga qaramasdan istiqolchilar o'z kurashlarini bo'shashtirmadilar.

Buxoro amirligi o'rnida tashkil topgan Buxoro Respublikasida istiqolchilar qizil armiya qismlariga qarshi qariyb 5 yil davomida shiddatli jang xarakatlarini olib borishdi.

Bu kurashda Buxoroliklar o'z kuchlari va ichki imkoniyatlariga suyanib, jahondagi eng qudratli xarbiy davlatning tish-tirnog'igacha qurollangan armiyasiga qarshi tura oldilar.

Sharqiy va O'rta Buxoro hududida esa bu harakat 1925-yilda ham pasaymadi, balki u avvalgidek davom etaverdi. Sovet tarixchilaridan birining yozishicha, 1925-yil yanvar oyida bu yerda 46 ta qo'rboshi ixtiyorida 1400 kishi bor edi. Buxoro vatanparvarlarining ko'pchiligi o'z yurtlarining mustaqilligi va ozodligi uchun kurashlarda qurbon bo'ldilar tirik qolgan fidoiylarning aksariyat qismi ham 5 yillik tinimsiz janglardan juda charchagan va toliqqan edi. Shuning uchun ularning ko'pchiligi sovet hokimiyati vakillariga taslim bo'ldi. Taslim bo'lishni hohlamagan minglab istiqolchilar esa Afg'oniston va boshqa xorijiy davlatlarga muhojir bo'lib jo'nab ketishdi. Manbalarda ularning miqdori 400 000 kishi atrofida keltiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mavjud sovet tartiblariga qarshi sobiq Buxoro xalq Respublikasida, xususan, hozirgi Surxondaryo viloyati va Tojikiston Respublikasi hududida vatanparvarlar yana o'n yil davomida (1925-1935 y.) hayot-mamot janglarini olib bordilar.

30-yillarning boshida esa, Sharqiy Buxoroda Ibroximbek qo'rboshi yana qaytadan paydo bo'lib, sovet armiyasi jangchilariga qarshi so'ngi yirik janglarni o'tkazdi. SSSR katta kuch sarflab, butun Turkiston tuprog'ida bo'lgani singari Buxoro zaminidagi istiqolchilik harakatini ham faqat 1935-yilga kelibgina butunlay tor-mor qila oldi holos.

REFERENCES

1. Зиёев Ҳ.3. Туркистонга Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т.: "Шарқ", 1998.
2. Рашидов У. Бухоро Халқ Республикаси. – Бухоро.: Бухоро, 2003.
3. Ражабов Қ Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш Т 2000.
4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида.-Т.: "Шарқ", 2000.